


## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Huquq fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="188 400 674 612"><b>Raqamli muhitda inson huquqlari va sun‘iy intellekt etikasi bo‘yicha innovatsion ta‘lim texnologiyalarini yaratish</b></p> 	<p data-bbox="801 357 1178 392"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="801 397 1189 432"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <ul data-bbox="730 437 2078 756" style="list-style-type: none"><li>- Raqamli muhitda inson huquqlarini ta‘minlash va sun‘iy intellektdan foydalanishning etik tamoyillari bo‘yicha kompleks o‘quv-uslubiy majmualar yaratiladi;</li><li>- Sun‘iy intellekt algoritmlarining shaffofligi va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik standartlarini o‘zi ichiga olgan maxsus malaka oshirish kurslari dasturi ishlab chiqiladi;</li><li>- Davlat xizmatchilari va soha mutaxassislari uchun raqamli huquqlar bo‘yicha innovatsion ta‘lim platformasi modeli shakllantiriladi;</li><li>- Soha bo‘yicha xalqaro standartlar va milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar tayyorlanadi.</li></ul> <p data-bbox="730 761 2078 920"><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish.</b> Olingan natijalar <b>Adliya vazirligi</b> tasarrufidagi tashkilotlarda hamda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida <b>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati</b> yoki <b>Adliya vazirligining</b> xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="730 925 2078 1085"><b>Ilmiy natijalarni chop etish.</b> Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="730 1090 2078 1209"><b>Izoh.</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar <b>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati</b> yoki <b>Adliya vazirligining</b> qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>